

Nurullayeva Dilshoda

Toshkent tibbiyot akademiyasi Tibbiy profilaktika fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Zulfiyaxonimning hayotiy va ijodiy yo'li. Uning mashqatlarni va qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tishi va ichki kechinmalari yoritilgan. She'rlaridagi o'ziga xoslik va jozibadorlik ta'kidlangan.*

Kalit so'z: *Zulfiyaxonim, nafosat, muhabbat olovi, sadoqat, bahor, ichki kechinmalar.*

Аннотация: *Жизненный и творческий путь Зулфияханум. Освещаются его героическое преодоление невзгод и трудностей, его внутренние переживания. Подчеркивается оригинальность и привлекательность его стихов.*

Ключевые слова: *Зулфияханум, утонченность, огонь любви, верность, весна, внутренние переживания.*

Annotation: *Zulfiyakhanim's life and creative path. His heroic overcoming of hardships and difficulties and his inner experiences are highlighted. The originality and attractiveness of his poems are emphasized.*

Key words: *Zulfiyakhanim, sophistication, fire of love, loyalty, spring, inner experiences.*

Ayol-tabiatan nozik, sadoqat va zakovat timsoli. U farzand, umr yo'ldosh, yaxshi kelin hamda ona timsolida ro'llar ijro etadi. Zulfiyaxonim - bu ro'llar bilan chegaralanib qolmasdan, balki xalq va jamiyat dardini tarannum etguvchi shoirahamdir. Zulfiyaxonim-taniqli va iqtidorli o'zbek shoirasi, u yoshligidanoq she'riyatga oshno bo'lib o'sgan. Zulfiyaxonim Isroilova xalqning dardi va inson qalbini his qilgan hamda jamiyatdagi ayollarning teng huquqi uchun mardonavar kurashgan ayol. Shoir bolalik yillarini xotirlab shunday yozgan: "Otamni... Isroil degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rar edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim. Uning qo'llari cho'g'ga aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bolishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muyassar bo'lavermas ekan. Mening onam o'zining ta'bincha, "usti butun - ichi tutun" ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi, lekin fikrlari, o'ylari mudroq emasligini, unga mutelik, zaiflik yot ekan-ligini bilar edim. Ruhidagi ma'yuslik, ovoqidagi hazinlik faqat uning xarakteriga xos bir sifatgina edi, xolos. Onamning qancha-qancha qo'shiq va afsonalarni, doston va er-taklarni bilishiga aqlim bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va ertaklar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni

ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbimda ostona hatlab ko'chaga chiqmagan oddiy ayol – onam uyg'otgan...”, Zulfiya she'riyati ana shunday mehnatkash va oddiy insonlarning ijod mahsulidir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, tabiatning ajib bir holatlari, inson ruhiy kechinmalari va qalbni o'rtaydigan hijron to'g'risidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraning barcha onalarga, barcha ayollarga, barcha ma'shuqalarga xos, tushunarli bo'lgan she'riyati also eskirmaydi. Zulfiya Isroilova turli janrlarda asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she'rlar, hikoyalar, ocherklar, publitsistik maqolalar va gazeta xabarlari. Uning ko'p she'rlari SSSR xalqlari tinchligi va do'stligi sari kurashga bag'ishlangan edi. Urush yillari u vatanparvarlik she'rlarini yozgan. U tomonidan, shuningdek, o'zbek bastakorlarining operalariga librettolar ham yozilgan, masalan, “Zaynab va Omon” operasiga libretto. Shu bilan birga, turmush o'rtog'I Hamid Olimjon qalamiga mansub “Semurg” dostoni mavzusi asosida, ertak-sahna asarini ham yozgan. Shoira Zulfiyaning estetik idroki ba'zan qanchalar jo'shqin bo'lsa, ba'zida o'ta tushkun bo'lib, biri ikkinchisi bilan o'zaro parallel holda namoyon bo'lgan. Zulfiyaxonimning ko'plab she'rlari tinchlik va xalqlar do'stligi uchun kurashga bag'ishlangan. Urush yillarida u vatanparvarlik ruhida she'rlar yozgan. Urush yillarida Zulfiya she'rlari orqali o'z zamondoshlari nomidan gapirishga intildi, o'sha yillari bunday murojaat bilan chiqish juda qaltis ish bo'lgan. Rus shoiri Vladimir Lugovskoy: “O'zbekiston harbiy she'riyatida Zulfiya she'rlari alohida o'rin tutadi”, deb yozgan edi. Uning she'riyatiga xos bo'lgan chuqur lirikadan tashqari, yangi intonasiyalar paydo bo'ladi. Bu birinchi navbatda fuqarolik va vatanparvarlik ovozi edi. U Vatan, ayol sadoqati, muhabbat mavzularini yangicha tarzda taqdim etoldi. Agar o'ttizinchi yillar boshida Zulfiya she'rlarida faqat hayotga oshiq lirik qahramonning ichki dunyosi aks etgan bo'lsa, urush yillarida ko'p tushunchalari o'zgardi. Urush yillarida Zulfiya o'zining eng yaxshi asarlaridan biri – frontda halok bo'lgan rassom Qobul qori Siddiqovga bag'ishlangan “Uni Farhod derdilar” she'rini yaratdi.

1944-yilda kutilmaganda Zulfiyaxonim boshiga katta falokat keladi, turmush o'rtog'i Hamid Olimjon avtohalokatda vafot etdi. Albatta suyukli yoridan ayrilish, uni endi bu dunyoda yo'qligini tan olish juda qiyin edi. Shunday bo'lsa ham, bunday og'ir va qayg'uli vaziyatda shoira qaddini bukmadi, sinmadi, balki o'z she'rlarida ulkan sadoqat, muhabbat, mehr va shu kabi boshqa iliq hislarni asosiy mavzusiga aylantirdi.

Mana, bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
Tobuting boshida cho'kkanimda tiz,
Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib.
(Zulfiya Isroilovani “Sensiz” she'ri)

Shoira farzandlari uchun ham ona, ham ota bo'lib ularni voyaga yetkizadi. Balki shuning uchun ham bo'lsa kerakki, shoira xalq ko'zida-matonatli, sadoqatli, kuchli ayol timsolida gavdalanadi. Biz undan nafaqat badiiylik mahorati balki ayol kishining sabru, qanoatini ham o'rganishimiz mumkin.

Alami, hijroni har zumda yangilanib, tobora kuchayib boraveradi. Ro'zg'ori, farzandlari, kitoblari, do'stlari yo'qotgan kishisini qayta-qayta esga solavergani bois quyidagi o'tli satrlar qog'ozga tushuradi: "Sovush bermaydi menga, Yoqib ketganing olov". Muhabbat olovi – mangu yonadi! Aqli yorning qaytib kelmasligiga iqrор bo'lsa ham, ruhan bunga ko'nikmaydi, u berahmlik bilan qaytmas bo'lib ketgan yorga talpinaveradi. Sadoqatli shaxsning azoblari tinimsiz davom etaveradi. Ushbu dramatik holat shoironing shaxsigagina tegishli bo'lsa-da, u kechirgan tuyg'ular chin bo'lgani bois boshqalarga ham begona emas.

Shoironing hayot haqidagi falsafiy fikrlari lirik kechinma yo'nalishi hamda tabiat tasviri hamohang teranlashib, tiniqlashib boradi. Zulfiyaning she'rlarini o'qir ekanmiz, romantik ko'tarinkilikdan ko'ra hayotning achchiq haqiqatlarini ro'y-rost aytishni afzal ko'rganini guvohi bo'lamiz:

"Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim
Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash,
Suydim,
Erkalandim,
Ayrildim,
Kuydim,
Izzat nima bildim,
Shuda, bir yashash!.."

Shu bir misra she'rda men shoironing butun hayotini aks ettirganiga guvoh bo'ldim. Bu she'rni o'qir ekanman, bir on shoironing xissiyotlari va ichki kechinmalari bilan yashadim. Qanchalik suyukli bo'lgani va bir lahza bu go'zal sevgidan mahrum bo'lib, o'kingani va hayot sinovlariga bosh egmay, qaddini tik tutib, dadil qadamlar bilan yashashda davom etganini xis qildim. Zulfiyaxonimning barcha she'rlarida kitobxonni o'ziga jalk qila oladigan nafislik va jozibadorlik mavjud. U she'rlariga o'zgacha xissiyot baxsh etadi. Bir vaqtning o'zida bitta she'rda: mag'rurlik, sokinlik, tushkunlik va ko'tarinkilikni xis qiladi kitobxon.

Zulfiyaxonim ijodida baxor fasliga alohida urg'u beradi. U dastlabki ijodini baxor faslini tarannum etish bilan boshlab, uzoq vaqtdan so'ng, u tabiatning uyg'onishi atrofning turli ranglarga burkanishi va yangilanishini bilan davom ettiradi.

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,

Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.

Shoira asarlarida aynan bahor faslini suygani uchunmi o'zgacha e'tibor qaratgan. Zulfiyaxonim asarlarida rang-baranglik, va ko'tarinkilik mavjud bo'lib, kitobxonni zeriktirib qo'ymaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytolaman-ki, men Zulfiyaxonimning hayot yo'li va ijodiy ishlari bilan tanishib chiqish jarayoni: uning o'zbek qizlari va ayollari uchun haqiqiy kumer ya'ni yo'l boshchi ekanligini angladim. Uning nafaqat ijod yo'li balki hayot yo'li ham bizlarga o'rnak bo'la oladi. Men shoira ning she'rlarida yorga vafosi, sog'inchi va sadoqatini xis qildim. Shuni ham alohida ta'kidlash kerak-ki, Zulfiyaxonim o'zbekistonda shoira lar maktabining asoschisi hamdir. U ayollarning jamiyatdagi mavqeini tiklash uchun ham dadil kurasha olgan ayoldir. Uning har javhada faol, izlanuvchanligi va mehnatkashligi biz yoshlar uchun alohida o'rnak bo'la oladi. Bularni yozar ekanman men ich-ichimdan, albatta men ham uning izdoshi sifatida Zulfiyaxonim mukofoti sovrindori bo'laman, deb niyat qildim!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sul'tonov M., Ijod sahifalari, Toshkent, 1975-y; Zulfiya (bibliografiy), Toshkent, 1977-y;
2. Akramov B. She'riyat gavhari. «Adabiyot va san'at» Toshkent 1979-y;
3. Zulfiya Tong bilan shom aro. Saylanma .Toshkent. Sharq. 2006-y;